

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY
MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

**“РОЛЬ БУХАРЫ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: БОГАТОЕ
НАСЛЕДИЕ, УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ, СВЕТЛОЕ
БУДУЩЕЕ”**

Международная научно-практическая конференция

**“BUKHARA'S PLACE IN WORLD CIVILIZATION: RICH
HERITAGE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT, BRIGHT
FUTURE”**

International Scientific and Practical Conference

II

Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil

Ilmiy-amaliy anjuman jahon sivilizatsiyasida Buxoroning tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, zamonaviy oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoroning boy merosi bilan kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirishni ilmiy muhokama maydoniga aylantirishni maqsadida o'tkaziladi.

Ushbu to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro va Buxoro davlat universitetining tarixi hamda turli soha ilmiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan qiziquvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va talaba-yoshlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O.X.Xamidov, Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay'ati va a'zolari :

K.A.Samiyev	– Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f.m.f.d., professor
D.Sh.Yavmutov	– Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor
O'U. Rashidov	– Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
A.T.Jurayev	– Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n, dotsent
R.G'. Jumayev	– O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d., professor
O.S.Qahhorov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, i.f.d, professor
G.T. Zaripov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, t.f.n., professor
N.I. Gaybullayeva	– BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, f.f.d., professor
N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent
A.A. Amonov	– Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, s.f.f.d., dotsent
Z.S. Nurov	– Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. dotsent
B.I. Adizov	– Rektor ijro apparati boshlig'i, i.f.f.d., dotsent
M.Z. Husenov	– Axborot texnologiyalari markazi direktori, p.f.f.d., dotsent
D.Z. Rajabov	– O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., professor,
A.H. Hamrayev	– BuxDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
O.O. Jalolov	– Matbuot kotibi

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent BuxDU tayanch doktorant (PhD) va doktorantlar (DSc) – (filologiya vo'nalishlari)

Mazkur to'plam Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil, 30-avgust 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.

darajaga ko'tarilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mazkur san'at turi asosan, Buxoroda saqlanib qoladi va keng tarqaladi, bunda chopon, to'n, do'ppi, peshonaband, belbog', qiyiqcha, nimcha kabi o'zbek an'anaviy liboslari, hamda chimildiq, joynamoz, taxmonpo'sh, zinpo'sh, dayri, yo'lpo'sh va turli maishiy buyumlar tayyorlangan. Dastlab, ushbu hunar bilan erkaklar, so'ngra ayollar shug'ullanganlar.[5] Mazkur ko'p asrlik san'at turining bugungi kun terminshunosligida yana bir nechta ta'riflari mavjud:

- 1) zardo'z kasbi;
- 2) zar ip bilan naqsh (kashta) tikish;
- 3) zar qo'shib buyum tikish.

Tahlillar asosida keltirilgan misollardagi til birliklari ularni tashkil etuvchi elementlariga ko'ra farq qilsa-da, ma'no jihatdan yagona sinonim qatorni hosil qiladi.

«Zardo'zlik»ning fransuz tiliga xos bo'lgan varianti «broderie d'or» deb atalib, ushbu san'at bilan shug'ullanuvchi kasb egasi «un brodeur» deb nomlanadi. Mazkur terminlarni leksik xususiyatga ko'ra tahlil etilganda, o'zbek tilidagi «zardo'zlik» atamasi (ot+so'z yasovchi) yasama so'z, uning fransuzcha ekvivalenti (ot+ot shaklida) qo'shma so'z bo'lib kelganligini ko'rish mumkin.

Fransuz va o'zbek tillaridagi «zargarlik» va «zardo'zlik» hamda «orfèvrerie» va «broderie d'or» terminlarini leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra qiyosiy va chog'ishtirma tahlil etib, ikki noqardosh fransuz va o'zbek tillariga xos terminlar shu til me'yorlaridan kelib chiqish bilan birga, o'z madaniyati va turmush tarzini ifodalashda ba'zan mushtaraklik va ba'zan o'zigaxoslik kasb etganligini, o'zbek va fransuz tilidagi atamalar shu til sathida o'zining ko'plab sinonim va paronimlariga egaligi bilan xarakterlanishi ko'rish mumkin.

Jahonda milliy tarixi va madaniyatiga ega bo'lgan qadim va hamisha navqiron Buxoro shahrining zargarlik va zardo'zlik san'atlari avlodlar osha yana ming yillar yashamog'iga hech shubha yo'qki, bugun ustoz-shogird ananalariga asoslangan zargarlik hamda Buxoro zardo'zligi milliy hunarmandchilik asoslarini saqlab qolgan san'at sifatida dunyoda alohida e'tirof etilayotir.



4-rasm

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", – Toshkent, 2006. 136-137 b.
2. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi. YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi, – Toshkent, 2017. 202-204 b.
3. Fransuzcha-o'zbekcha lug'at. Dictionnaire français-ouzbek. Ibragimov X., ... – Toshkent, «Nihol», 2008. 376, 587 b.
4. Larousse Dictionnaire Maxipoche. La Tipografica Varese S.p.A., – Paris, 2010. – P. 973.
5. <https://neelam.fr/la-broderie-dor>
6. <https://uzbekistan.travel/uz/o/buxoro-tarixi/>
7. <https://society.uz/uz/news/detail/news/691>

MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY(BALXIY)NING “MASNAVIYI MA'NAVIY” ASARIDAGI HIKoyATLARDA ODOB-AXLOQ MASALALARI

Babayev Maxmud Tashpulatovich

Buxoro davlat universiteti

"Nemis filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mavlono Jaloliddin Rumi(Balxiy)ning “Masnaviyi Ma'naviy” asaridagi “Muhammad vandi valiy ut-tavfiqdin hamisha tavfiq va adab rioyati so'ralgani hamda beadablikning kasofatiyu zararlari bayoni” hikoyatida odob-axloq masalalarining asliyatda, forsiydan o'zbek tiliga O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol hamda forsiydan nemis tiliga Otto Ho'shle tarjimalarida berilishi haqida so'z yuritimiz.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Rumi, “Masnaviyi Ma'naviy”, odob, odobsizlik, Odam, Xudo, shayton, tavfiq, rizq, zakot.

Kirish. Jahon adabiyotining buyuk siymosi Mavlono Jaloliddin Rumiyning shoh asari- «Masnaviyi Ma'naviy» asari ma'nolari mohiyatiga ko'ra so'fiylik qomusi, insoniyat tomonidan yaratilgan eng shoh asar namunasidir. 25 ming 632 (boshqa bir manbaga ko'ra 26 ming 840) baytli, olti daftardan iborat «Masnaviyi Ma'naviy» asari shoir va tarjimon Sulaymon Rahmon o'zining «Rumi va uning durdona asari «Ma'naviy Masnaviy»ning o'zbekcha tarjimasiga oid» maqolasida ta'kidlaganidek «Ma'naviy masnaviy» mohiyatan Qur'oni karimning o'ziga xos she'riy tafsiri va hadisi shariflarning sharhidan, talqinidan iboratdir. «Masnaviy»da Qur'on oyatlaridan 760 marta iqtibos olingan, 745 o'rinda 703 hadisdan foydalanilgan. Muxtasar aytsak, «Ma'naviy masnaviy»ning botiniy mohiyati shahodat kalimasining – ya'ni, «La ilaha illalloh»ning turli-tuman hikoyatlar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar zamiriga singdirilgan zikrlari yig'indisidan iboratdir; uning bosh maqsadi – ana shu hikoyatlar, latifalar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar vositasida tavhidni – Allohning yagonaligini, sherigi yo'qligini zikr etish va tasdiqlashdir. Yanayam to'g'rirog'i, bu asar mavlono Rumiyning buyuk zot Allohning yakkayu yagona ekanligini tasdiqlab qilgan zikrlari, Uning Zoti, Sifoti va Qudrati haqidagi fikrlari, Uning bani Odamga bergan ne'matlari uchun Unga astoydil shukrlarining badiiy ifodasidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolada Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi Ma'naviy” asaridagi “Muhammad vandi valiy ut-tavfiqdin hamisha tavfiq va adab rioyati so'ralgani hamda beadablikning kasofatiyu zararlari bayoni” hikoyatida odob-axloq masalalarining asliyatda, forsiydan o'zbek tiliga O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol hamda forsiydan nemis tiliga Otto Ho'shle tarjimalarida yoritilishini tahlil qilishga urindik. Maqola yozish jarayonida Mavlono Jaloliddin Rumiyning R.Nikolson matni va boshqa nusxalar asosida tuzilgan, Dushanbe shahridagi Adib nashriyotida 2013 yilda chop etilgan tojikcha *Мавлоно Ҷалолуддин Муҳаммади Балхӣ Маснави маънавӣ: Дафтари аввал ва дувум/ Дафтари сеум ва чорум/ Дафтари панҷум ва шашум* kitoblaridan, forsiydan o'zbek tiliga Jamol Kamol tarjimasidagi *Mavlono Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. Birinchi-oltinchi* kitoblaridan hamda olmon tarjimoni Otto Ho'shle tomonidan fors tilidan nemis tiliga qilingan tarjima asosida chop etilgan *Dschaläl ad-Din Rûmi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Erstes Band. Buch I-III. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2020* va *Dschaläl ad-Din Rûmi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Zweites Band. Buch IV-VI. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2021*, „Qur'oni Karim. Ma'nolar tarjiması.“ Shayx Muhammad Sodiқ Muhammad Yusuf, „Qur'oni karim ma'nolari tarjiması. Tarjimon Abdulaziz Mansur “ kitoblaridan hamda ko'plab internet saytlaridagi ma'lumotlardan foydalanildi.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi Ma'naviy” asaridagi “Muhammad vandi valiy ut-tavfiqdin hamisha tavfiq va adab rioyati so'ralgani hamda beadablikning kasofatiyu zararlari bayoni” hikoyatida Mavlono odobning foydalari, odobsizlikning zararlari haqida go'zal fikrlar bayon etganlar. Bu baytlarni o'qib biz o'zimizga kerakli nuqtalarni olishimiz va ularni hayotga tadbiiq etishimiz mumkin. Mavlono bu baytlarda bizdan oldin yashab o'tganlar (payg'ambarlar, insonlar...) hayotidan misollar keltiradilar, bu hikoyatlardan ibrat olishga da'vat etadilar.

Hikoyat “Az Xudovandi valiyyut-tavfiq darxostani tavfiqi rioyati adab dar xamai xolxo va ba'en kardani vaхомати зарарҳои беадабӣ” o'zbekchada “Muhammad vandi valiy ut-tavfiqdin hamisha tavfiq va adab rioyati so'ralgani hamda beadablikning kasofatiyu zararlari bayoni” hamda nemischada “Gott, unser Seelenführer, wird gebeten, uns in allen Lagen zur Höflichkeit zu führen, und über die Schädlichkeit der Unhöflichkeit” deb nomlanadi. Hikoyatdagi birinchi baytda (1-daftar, 78bayt) Mavlono xudodan tavfiq adab tilaymiz deydi. Odob juda muhim, kimki beadablik qilsa Rabbimizning lutfidan bebahra bo'ladi.

Аз Худо чӯем тавфиқи адаб,

Rabbimizdin barcha istarmiz adab,

Беадаб махрум гашт аз лутфи раб.

Beadab ko'rmas jahonda lutfi Rab.

Wir bitten Gott, uns Höflichkeit zu lehren, denn ohne sie entzieht sich Seine Gnade.

“Tavfiq” so'zi arab tilidagi “vaffaқo” fe'lidan olingan bo'lib, “yaxshi yo'lga boshqarmoқ”, “ezgu amallarga muvofiq qilmoқ”, “muvaфfaqiyat qozonmoқ”, “omadi kelmoқ” ma'nolarini anglatadi. Bu so'z ma'nosi umumlashtirilsa, unda “insonni hayotda yaxshi, solih va ezgu amallar sari yo'naltirish, ya'ni bu borada unga “omadning berilishi” mazmuni kelib chiqadi. Shar'iy istilohda “tavfiq” so'zi “Alloh taolo bandasini O'zi rozi bo'ladigan ishlarga boshqarishi va gunoh ishlardan saqlashi”ni anglatadi. Xudo barcha maxluqotlarga insonga sajda qilishni buyuradi. Iblisdan tashqari barcha mavjudodlar insonga sajda qildi. Natijada iblis yaratganning lutfidan bebahra bo'ldi va odamning dushmaniga aylandi. 1daftarning 1490-1518 baytlaridan iborat “Odamning «rabbimiz, biz o'zimizga zulm etdik» deya gunohini bo'yniga olgani va iblisning «sen o'zing meni yo'ldan ozdirding» deya gunohini tangriga to'nkagani” hikoyatida ham shu fikrlar kengroq yoritib berilgan. Shayton odamni aldadi, odam jannatdan haydaldi. Shu voqea bo'lgan paytda shayton “bimo ag'vaytaniy”, ya'ni “sen o'zing meni yo'ldan ozdirding” deya gunohini tangriga to'nkab unga nisbatan odobsizlik qilishga jur'at etadi. (Hijr surasi 39-oyati: “U dedi: “Robbim! Meni yo'ldan ozdirganing

sababli, albatta, men ularga yer yuzida (gunohlarni) chiroyli ko'rsataman va albatta, ularning hammasini yo'ldan ozdiraman.") Odam esa "zalamno nafsano" ya'ni "rabbimiz, biz o'zimizga zulm etdik" deya gunohini bo'yniga oldi. Odam qazoyu qadar borligini, barchasi Xudoning irodasidan ekanligini bilardi. Lekin xato qilganligini bilgani uchun "zalamno nafsano" dedi. (A'rof surasining 23-oyati: "Ikkovlari: "Robbimiz, o'zimizga zulm qildik. Agar bizni mag'firat qilmasang va bizga rahm qilmasang, albatta, ziyon ko'ruvchilardan bo'lamiz", – dedilar.") Hazrati inson odobga rioya qilib gunohini o'z bo'yniga oldi, boshqalarga aybni to'nkamadi.

Ta'kidlash joizki nemis tarjimoni Otto Ho'shle matnni juda yaxshi anglagan holda mazmun-ma'noni aniq ochib bergan. Jumladan ushbu hikoyat sarlavhasini u shunday tarjima qilgan: „*Adam legt sich seine Sünde selbst zur Last: „Gott, wir haben wider uns gefehlt!“*“, während Iblis die seinen Gott zur Last legt: „*Du liebest mich irregehen!*“.“

Гуфт шайтон, ки «бимо ағвайтанй»,
Кард феъли худ ниҳон деви данй.

Гуфт Одам, ки «заламно нафсано»,
Ў зи феъли Ҳақ набуд ғофил чу мо.

Дар гунаҳ ў аз адаб пинҳон-ш кард,
З-он гунаҳ бар худ задан ў бар бих(в)ард.

„Du liebst mich irregehen!“, sprach der Satan.*

Der Böse wollte so sein Tun verbergen.

„Wir haben wider uns gefehlt!“, sprach Adam.**

Er sah nicht ab von Gottes Tat wie wir,
verschwieg sie bei der Sündentat aus Anstand,
er aß die Frucht, die Sünde auf sich nehmend.

Tarjimon nemis o'quvchilariga tushunarli bo'lishi uchun * belgisi yordamida so'zlarni belgilab har sahifada bu jumla manbasi haqida tushuntirish berib o'tadi: (* *Koran 15:39- „Er sprach; Mein Herr, weil Du mich verleitet hast, werde ich ihnen auf der Erde alles im schönsten Licht erscheinen lassen und sie allesamt verleiten.“ Der Sprechende ist Iblis.* Qur'on 15oyat 39 sura: "U dedi: "Robbim! Meni yo'ldan ozdirganing sababli, albatta, men ularga yer yuzida (gunohlarni) chiroyli ko'rsataman va albatta, ularning hammasini yo'ldan ozdiraman." Gapirovchi-Iblis.) ***Koran 7:23- „Sie sprachen: Unser Herr! Wir haben an uns selbst gefrevelt.“ Die Sprechenden sind Adam und Eva.* Qur'on 7 oyat 23 sura: Ular aytdilar: "Ey, Rabbimiz! Biz o'zimizga (o'zimizga) zulm qildik." Gapirovchi Odam va Havo.)

Гуфт: «Тарсидам. Адаб нағзоштам»,

Гуфт: «Ман ҳам поси онат доштам».

„Ich scheute mich, vom Anstand abzusehen“, sprach er- und Gott: „Auch Ich zollt dir doch Achtung.“

Keyin Xudovand „bu bizning qazoyu qadarimiz edi, nega sen barchasini o'z bo'yingga olding? deya so'radi. Odam dedi: Qo'rqdim va odob saqladim. Dedi: Shul bois men seni ardoqladim.

Odamning niyati odobga rioya etish edi. Uning qurquvi sababi agar men odobsizlik qilsam sen mendan ranjiysan. Sen meni shu maqom(daraja)ga yetkazding, menga yaxshiliklar qilding, agar men bu ne'matlarga noshukurlik qilsam seni ranjitishdan qo'rqdim.

Ҳар кй орад ҳурмат, ў ҳурмат барад,

Ҳар кй орад қанд, лавзина х(в)арад.

Wer Achtung bringt, wird auch geachtet werden,
wer Zucker bringt, wird Mandelkuchen essen.

Kimki hurmat ko'rsatsa hurmat ko'radi. Kimki qand keltirsa lavzina(halvo) eydi. Sen bir keltirsang, senga o'n keladi.

Nemis tarjimoni Otto Ho'shle "lavzina" so'zini "Mandelkuchen" yani „bodomli halvo“ deya aniq ochib beradi.

Беадаб танҳо на худро дошт бад,

Балки оташ дар ҳама офоқ зад.

Моида аз осмон дармерасид,

Бе широву байъу бегуфту шунид.

Дар миёни қавми Мӯсо чанд кас

Беадаб, гуфтанд: «Ку сиру адас?»

Мунқатеъ шуд хону нон аз осмон,

Монд ранчи заръу белу досамон.

Wer taktlos ist, der schadet nicht sich selbst nur,
die ganze Welt gibt er den Flammen preis.

Dedi Shaytonkim: bima ag'vaytani.

Fe'lini berkitdi ul devi dani.

Dedi Odamkim: zolamna nafsana.

Erdi Odam Haq fe'liga oshno.

Aybini berkitdi saqlab ul adab,

O'zini aybsitdi yolg'iz, nuqtalab.

Dedi: qo'rqdim hamda odob saqladim,

Dedi: shul bois seni ardoqladim.

Hurmat etgan er bo'lur hurmatli er,

Kimki qand bergay, o'shal lavzina yer

Yo'q, faqat etmas o'ziga ul yomon,

Beadab urgay jahonga o't hamon.

Nozu ne'mat to'la sufra har mahal

Yer sari ko'kdin inardi bebadal.

Lek Muso qavmiga mansub necha kas

Dedilar: qayda sarimsog'u adas?

Man' etildi shunda osmon ne'mati,

Bizga qoldi non topishlik zahmati.

Vom Himmel fiel als Nahrung Manna nieder,
 ganz ohne Kauf, Verkauf und Kopfzerbrechen, **
 doch gab's im Volke Moses' manche Menschen,
 die taktlos Knoblauch forderten und Linsen? ****
 Das Brotgeschenk des Himmels hörte auf,
 es blieben Aussaat, Spaten, Sichel übrig.

Kimki odobsizlik qilsa yaratganning lutfu-marhamatidan bebahra qoladi, mahrum bo'ladi. Odobsizligi nafaqat uning o'ziga balki atrofidagilariga ham ziyon yetkazadi. Nemis tarjimoni Otto Ho'shle ushbu baytlarni tarjima qilish jarayonidagi izohlarda Qur'oni karimning Baqara surasi 57-oyatidan iqtibos keltiradi. **
Koran 2:57 – „Wir ließen die Wolken Schatten spenden über euch und sandten Manna und Wachteln zu euch herab: „Esst von den guten Dingen, die Wir euch bescherten!““. Baqara surasi 57-oyati: *Shuningdek, ustingizga bulutlarni soyabon qildik, samoviy noz-ne'matlar va (pishirilgan) bedanalar nozil etib, "Sizlarga rizq sifatida berilgan pok narsalarni yenglar" (dedik). Ular (Isroil avlodi) Bizga zulm qilmadilar, balki o'zlarigagina zulm qildilar.* (Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi. Tarjimon Abdulaziz Mansur). Ularning ba'zilari (hammasi emas, ayrimlari) zahmatsiz, osmondan keluvchi rizqqa (Mann va bedanalarga) shukr qilmay bodiring, sarimsoq, piyozga o'xshagan narsalarni so'radilar. O'zlariga kelib turgan rizqqa qanoat qilmasdan ko'proq narsani talab qildilar. Ular o'z istaklarini odobsizlarcha aytganlari uchun osmondan keluvchi rizq to'xtadi. Muso qavmi (Isroil avlodi) dan bir necha kishi odobsizlik qildi, lekin barchalari rizqdan bebahra qoldilar. (***)
Koran 2:61. Die Israeliten in der Wüste beklagen sich bei Moses über das eintönige Manna-Fasen, sie fordern Kräuter, Gurken, Knoblauch, Linsen und Zwiebeln. Gott wird zornig und bestraft sie mit „Schmach und Armut“. Baqara surasi 61-oyati: *Yana eslang, "Ey, Muso, biz bir (xil) taom (yeyish)ga sabr qila olmayapmiz. Rabbingdan duo qilib so'ra, bizga Yer (o'zidan) undirib chiqaradigan bodring, sarimsoq, mosh-loviya, piyoz kabi sabzavotlardan yetishtirib bersin", - deganingizda, u: "Yaxshi narsani past narsaga almashtirmoqchimisizlar, (biror) shaharga tushingiz (u yerda) sizlar uchun so'ragan narsangiz bor", - degan edi. Ularga (bu noshukrliklari tufayli) xorlik va miskinlik bitib qo'yildi hamda Allohning g'azabiga uchradilar. Bunga ularning Alloh oyatlarini inkor qilganlari va payg'mbarlarni nohaq qatl etganlari sabab bo'ldi. Yana boshqa sababi esa ularning itoatsizliklari va tajovuzkorliklaridir.* (Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi. Tarjimon Abdulaziz Mansur).

Боз Исо чун шафоат кард Ҳақ,
 Хон фиристоду ғанимат бар табак.
 Боз густохон адаб бигзоштан,
 Чун гадоён заллаҳо бардоштан.
 Лоба карда Исй эшонро, ки ин
 Доим асту кам нагардад аз замин,
 Бадгумонӣ кардану хирсоварӣ,
 Куфр бошад пеши хони меҳтарӣ.
 З-он гадорӯёни нодида зи оз,
 Он дари раҳмат бар эшон шуд фароз.

Boz Iso etdi shafuat, Tangri Haq
 Sufra yo'llab, sufraga tizdi tabaq.
 Boz gustoxlar adab tark etdilar,
 Har ne ortganni olib, berkitdilar.
 Yolvorib Iso dediki: bu qiliq,
 Yer yuzidin ketmagay, qolgay aniq.
 Sufradin non yeb, anga aytmay shukr,
 Ayblasang uy sohibin, bo'lgay kufr.
 Ul necha yo'qsul, gadolar kasridin,
 Eshigi rahmat yopildi qaytadin.

Auf Jesu Fürsprach sandte ihnen Gott
 erneut mit Speisen reich gedeckte Tafeln.
 Erneut ließ grobes Pack den Takt vermissen,
 und nahm das Beste mit sich fort wie Bettler.
 Da mahnte Jesus diese an und sagte:
 „Das bleibt nun so und weicht nicht von der Erde.“
 So schlechter Wille und solch große Gier
 sind Undank an des Mächtigen reicher Tafel.
 Vor diesen von Begierde blinden Menschen
 verschließt das Tor sich der Barmherzigkeit;

Bir muddat vaqt o'tib Uso(a.s) davriga kelib osmondan yana rizq yog'ildi. Bani Isroil gadolarga o'xshab (ochko'zlik bilan) dasturxondagi qolgan-qutgan taomlarni yig'ishtirib olar edilar. Birov bilan baham ko'rish o'rniga faqatgina o'zlariga ravo ko'rardilar. Ertaga bu rizq yana bo'ladimi-yo'qmi degan gumon bilan dasturxonni bo'shatar edilar, birovga ravo ko'rmasdilar. Iso(a.s) bu qavmga bu rizq doimiy ekanligini, ertaga xudo yana berishini aytsada ular xudoga nisbatan badgumonlik qilar edilar. Oloh onangning qornida ekanligingda senga rizq berdi, necha yoshga kirgan bo'lsang shuncha yil senga rizq berdi. Yana nega badgumonlik qilasan. "Sendan harakat, mendan barakat." Sen ozgina harakat qilsang xudo barakasini beradi.

Shu o'rinda Masnaviyning 5-daftaridagi "Kattakon bir orolda yolg'iz yashagan ho'kiz hikoyasi"ni esga olsak. Tangri taolo ho'kiz o'tlasin uchun orolni o't-o'lanlar, maysa-chechaklarga to'ldirmish. Ho'kiz

kun bo‘yi o‘t-o‘lanlarni yeb-yamlab, semirib, oqshom toqqa qaytarmish. O‘tloqda borini yeb bitirdim, ertaga nima yeyman, deb tun bo‘yi uxlamas, qayg‘u chekarmish. Ertasi orolni tag‘in o‘t-o‘lan qoplaganini ko‘rib, yana yemoqqa boshlar, oqshomgacha yeb tugatib, semirib, yana g‘ussaga botarmish. Oradan yillar o‘tsa hamki, ho‘kizda e‘timod paydo bo‘lmamish. Mavlono bu ho‘kiz siymosida biz-insonlarni nazarda tutyaptilar.

Абр бар н-ояд пайи манъи закот
В-аз зино афтад вабо андар чихот.

Ҳар чй бар ту ояд аз зулмоту ғам,
Он зи бебокиву густохист ҳам.

Ҳар кй бебокй кунад дар роҳи дўст,

Раҳзани мардон шуду номард ўст

es fällt kein Regen, wo die Wohltat fehlt,
und Ausschweifung verseucht die Welt mit Pest.

Das Unrecht, das du leidest, und der Gram
entspringen Unverschämtheit stets und Grobheit,

Wer auf dem Pfad des Herrn nicht Rücksicht kennt,
wird bald zum Straßenräuber und Verräter.

Agar zakot berilmasa ko‘kda bulut bo‘lmaydi, yomg‘ir yog‘maydi, natijada qahatchilik bo‘ladi. Zino tufayli vabo(kasalliklar) tarqaladi. Zakot – Islomning besh ruknidan biri bo‘lib, shariat farz qilgan amaldir. Zakot lug‘atda “poklash”, “o‘shish” degan ma‘nolarni anglatadi. Shar‘iy istilohda esa – “Muayyan mollardan ma‘lum qismini Alloh taolo belgilab bergan muayyan toifa kishilarga mulk qilib berish”dir. “Zakot” so‘zining ma‘nolaridan bevosita ko‘rinib turibdiki, zakoti berilgan molga baraka kiradi, ko‘payadi, o‘shib, ziyoda bo‘laveradi. Zakoti ado etilgan mollarni Alloh taolo asraydi. Qur‘oni Karimning o‘ttiz ikki joyida zakot berishga buyruq bo‘lib, shundan yigirma sakkiztasi namoz bilan birga zikr qilingan. Shu e‘tibordan zakotning martabasi namozning martabasi bilan tengdir. Demak, musulmon inson namoz bilan zakotning orasini ajratmaydi. Bu haqda Alloh Taolo Qur‘oni karimda shunday degan: “Namozni to‘kis ado qilinglar, zakotni beringlar va Rasulga itoat qilinglar, shoyadki, rahm qilinsangiz”(Nur surasi, 56-oyat).

Boshingga nima kelsa o‘zingning gustohligingdan, deydi Mavlono.

Masnaviyning 2daftar 153 baytida

Он кй тухми хор корад дар чаҳон,

Ҳону ҳон, ўро маҷӯ дар гулситон.

Wer Dornensamen sät in dieser Welt, den sucht im Rosengarten nicht, gib acht!

Masnaviyning 3daftar 4785 baytida

Чумла донанд ин, агар ту награвӣ,

Ҳар чй мекориш, рӯзе бидравӣ.

Ul jahon ichra tikon ekmish nuqul,

Bo‘limgay hargiz guliston ichra ul.

Барча билгайларки, сен ҳам бил шуни,

Не экарсен ерга, олгайсен уни.

Auch wenn du es nicht glaubst, es wissen alle: Du erntest eines Tages, was du säst.

Sen tikan urug‘ini sepib guldan umis qilma. Nima eksang o‘shani olasan.

Qur‘oni karimning Nur surasi 79-oyatida “Senga nima yaxshilik yetsa, Allohdandir. Va senga nima yomonlik yetsa, o‘zingdandir”, deyilgan. Kim do‘stiga xiyonat(nomardlik) qilsa u gumrohlik qilibdi. Mavlono mardlikni jinsiy nuqtai-nazardan emas, balki insonning aqliy kamolotga erishganligi bilan hisoblaydi. Bizning odobsizligimiz boshqalarga zarar yetkazmasin.

Аз адаб пурнур гаштаст ин фалак

В-аз адаб маъсуму пок омад малак.

Буд зи густохй кусуфи офтоб,

Шуд Азозиле зи чуръат радди боб.

Nurga to‘lmishdir adab birlan falak,

Ham adabdin ma‘sumu pokdir malak.

Kun tutilsa ko‘kda, gustohlik sabab,

Ko‘kdin haydaldi Azozil, beadab.

Durch Höflichkeit kam Licht erst an den Himmel

und wurden keusch und rein doch erst die Engel.

Durch Frechheit wurd’ die Sonne schwarz wie Teer,

durch Frechheit fuhr zur Hölle Luzifer.*

Nemis tarjimoni Otto Ho‘shle „Luzifer- bei Rumi „Azäzil“, i.e. Iblis oder Satan; vgl. Koran 38:73ff: der Fall der ungehorsamen Engel, die Adam nicht anbeten wollten“, deya tushuntirish berib o‘tgan. Tarjimasi “Lyusif-Rumiyda Azozil(Iblis yoki Shayton); Qur‘onning 38 sura 73 oyatiga taqqoslang: Odam Atoga sajda qilishni istamagan itoatsiz farishtalarning ishi, deya ta‘rif beradi(Tarjima o‘zimizniki). Qur‘oni karimning 38-(Sod) surasi 73-oyati: “Bas, farishtalar barchalari baravariga sajda qildilar”.

Odob tufayli falak nurga to‘ladi, malak mas‘umu pok bo‘ladi. Oftob gustohligi sababli kususuf bo‘ldi. Oftob o‘z yo‘lidan zarracha chetga chiqqanligi(falakda biroz egri yurganligi) sababli yuzi qora bo‘ldi. “Masnaviyi ma‘naviy” asaridagi 6-daftarning 935 baytida ham shunga ishora bor:

Офтоб андар фалак каж мечаҳад,
Дар сияҳруй қусуфаш меҳаҳад.

Ko'kda oftob egri yo'l bossa, uzun,
Ul xusuf birlan qoraytirgay yuzin.

Azozil (Iblis, Shayton) odobsizligi, Ollohga nisbatan “bimo ag‘vaytaniy”, ya’ni “sen o‘zing meni yo‘ldan ozdirding” deya gunohini tangriga to‘nkab unga nisbatan odobsizlik qilishga jur‘at etgani sababli raddi bob bo‘ldi. Odamzodning “zalamno nafsano” ya’ni “rabbimiz, biz o‘zimizga zulm etdik” deya gunohini bo‘yniga olishi bu odob namunasidir.

Xulosa. Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi Ma’naviy” asaridagi “Muhammad vandi valiy ut-tavfiqdin hamisha tavfiq va adab rioyati so‘ralgani hamda beadablikning kasofatiyu zararlari bayoni” hikoyatida Mavlono odobning foydalari, odobsizlikning zararlari haqida go‘zal fikrlar bayon etganlar. Bu baytlarni o‘qib biz o‘zimizga kerakli nuqtalarni olishimiz va ularni hayotga tadbiq etishimiz mumkin. Mavlono bu baytlarda bizdan oldin yashab o‘tganlar (payg‘ambarlar, insonlar...) hayotidan misollar keltiradilar, bu hikoyatlardan ibrat olishga da‘vat etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мавлоно Чалолуддин Муҳаммади Балхӣ Маснави маънавӣ: Дафтари аввал ва дувум – Душанбе: «Адиб», 2013. - 480 саҳ.
2. Мавлоно Чалолуддин Муҳаммади Балхӣ Маснави маънавӣ: Дафтари севум ва чорум – Душанбе: «Адиб», 2013. - 480 саҳ.
3. Мавлоно Чалолуддин Муҳаммади Балхӣ Маснави маънавӣ: Дафтари панҷум ва шашум – Душанбе: «Адиб», 2013. - 480 саҳ.
4. Мавлоно Жалолуддин Румий. Маснавийи маънавий. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. – Т.: MERIYUS, 2010. – Б. 864.
5. Dschalāl ad-Din Rūmi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Erstes Band. Buch I-III. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2020
6. Dschalāl ad-Din Rūmi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Zweites Band. Buch IV-VI. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2021
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Masnaviy>
8. Qur’oni Karim. Ma’nolar tarjimasi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf - https://islom.uz/mano_tarjima/4
9. Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi. Tarjimon Abdulaziz Mansur “-www.ziyouz.com.
10. <https://muslim.uz/uz/e/post/26702-17-05-2019-y-zakot-berish-buyuk-ibodat>
11. <https://www.bukhari.uz/?p=35214&lang=oz>

ВЛИЯНИЕ ДЕТЕКТИВНОГО ЖАНРА НА МЫШЛЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗУМА

Бердиева Шахноза Набижоновна
доцент кафедры Русского языка и литературы
ТерГПИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности детективного жанра, который начал формироваться с середины XIX века и оказывает определённое положительное влияние на развитие мировой литературы. В статье высказываются размышления о факторах появления детективной литературы, путях её развития и значимых аспектах в науке о слове.

Ключевые слова: детективная литература, детективный жанр, узбекская национальная детективная литература, проблемы национального детектива.

Введение. В этапах развития узбекской прозы XX века отношение между реальной жизнью и реалистическим изображением иногда было взаимным, а порой несоответствующим. В этом сложном историческом процессе существовали определённые тематические направления, в частности, большие и малые опыты и проблемы узбекского детектива, которые практически не были предметом анализа и научного исследования в узбекском литературоведении.

В процессе развития узбекской детективной литературы длительное творческое затишье было вызвано нереализованной политикой бывшего тоталитарного режима и принципами его догматической идеологии. Однако в настоящее время заметные успехи в этой области совпадают с обновлениями в обществе, литературном сознании и реальной жизни, а также с благами независимости и суверенитета.

Анализ литературы и методология. Хотя в советский период развитие детективной литературы было ограничено, образцы этого жанра мировой литературы прежде всего переводились

MUNDARIJA

Muallif	Mavzu	Bet
И.Н. Нургалиев, Н.Ж. Бурханова, К.К. Пирнийзов	Структурная организация и механизмы стабилизации биополимерных комплексов хитозана с ионами алюминия, аскорбатом и триполифосфатом	3
И. Рахматуллаев	Изучение реакции конденсации гликозилизотиоцианата с некоторых производных аминопиразолкарбоновой кислоты	8
Г.Г. Рахмонова, Қ.Р. Баратов, Р.Н. Рахимов, У.Г. Гайибов, Р.А. Якубова, Н.Г. Абдулладжанова	Аллоксан билан индуцирланган қандли диабетли каламушларда <i>глабтаннинг</i> оксидатив стрессга қарши фаоллигини баҳолаш	13
А.А. Сайпов, А.Ж. Абылова, Р. Ж. Бекбосынова, Т.Т. Калилаев	Қорақолпоғистон Республикаси жамансай кони доломитининг физик-кимёвий хоссалари	18
Н.Х. Худойбердиев	Беда намуналарининг пичан маҳсулдорлиги белгиси кўрсаткичлари	20
J.A. Xalilov, F.N. Rahmatullayev	Neftning aralashmalarining fizik-texnik xossalari va ularning tatbiqi	24
M.A. Murodillayeva, A. Mavlonov	Neftni birlamchi qayta ishlash texnologiyasi va uni amalga oshirish qurilmasi	26
M.A. Murodillayeva, B.B. Mavlonov	Gazkondensat konlarini ishlatish tizimlarini loyihalashtirish	28
M.A. Murodillayeva	Sintetik yoqilg'ilar ishlab chiqarishning bugungi kundagi dolzarbligi	31
H.A. Tog'ayev	Mukammal uskunalar yaratishning asosiy talablari	35
А.Ю. Дустов	Изучение физических свойств и состава композиционных абсорбентов на основе аминов и эфиров для автомобильных топлив	37
G. Xamraqulova. A. Toshtemirov	Energiya sektorida gidrotozalash jarayonida ishlatiladigan katalizatorlar tarkibi va xossalari tahlili	39
Г.О. Хамрақулова	Производство синтетического жидкого топлива и поставка энергоресурсов	40
I.A. Xudoyberdiyev, E. Yuldashev	Atmosferaga chiqarilayotgan gazlardan unumli foydalanish («Shurtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi» misolida)	42
A.M. Jo'rayev	Neft va gaz konlarida qatlam o'tkazuvchanligidan kelib chiqib, gidravlik yorish texnologiyasidan foydalanish	44
D.D. Ataqulova, A.B. Choriyev	Aminonitrilli ingibitorlar ishlab chiqarishning moddiy va issiqlik balanslari hamda texnologik tavsifnomalari	45
S.S. Djabborov	Neft va gaz quduqlarini qiya va gorizontal burg'ilash usullarini takomillashtirish usullari	48
D.D. Ataqulova	Magistral quvurlarda, tarmoq-quvurlarda, gaz taqsimlash stansiyalari yer osti aloqa quvurlari ichki turdagi korroziya jarayoni	50
S.S. Djabborov, D.D. Nasriddinov	Burg'ilash eritmalarini tayyorlovchi va qayta ishlovchi uskunalar	52
H.A. Tog'ayev	arni perforatsiya qilish jihozlari	55
H.A. Tog'ayev, B.O. Ortiqov	Neft uyumlariga suv bostirish orqali ta'sir etish texnologiyasi	57
D.D. Ataqulova, Q.A. Rustamov	Aminonitrillar asosida olingan korroziya ingibitorlarini tarkibini o'rganish	58
S.S. Djabborov, Z.N. Sa'dullayev	Maxsuldor qatlamni birlamchi ochish texnologiyasi	61
A.J. Abilova, A.N. Mnajov	Ustyurt gipsining termik qayta ishlash bosqichlarida gidratatsion struktura hosil bo'lish kinetikasi	63
A.E. Xolliyev, Ch.A. Aminjonova	Soya o'simliklarining (glycine max) qurg'oqchilikka chidamliligi fiziologiyasi	66
H. Aminova, S.Z. Sattorova,	Atsetoatsetanilidning atsetil gidrazoni raman spektri tahlili	69

A.Y. Amandurdiyev	Turkiy xalq maqollarida harakat fe'llari presuppozitsiyasi	300
F.A. Aminova	Badiiy asarlarda adabiy til va sheva xususiyatlari	304
A.A. Амиркулов	Талабаларнинг хорижий тилларни ўрганиш қобилятини ривожлантиришнинг методик тизими	307
D.M. Anisbekova	O'zbek xalq dostonlarini o'qitishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanish usullari	309
M.I. Atajonova	Og'zaki nutqda intonatsiya va grammatikaning o'zaro integratsiyasi ("Jane Eyre" asaridan olingan misollar asosida)	313
Ш.У. Аюсбаева	Язык совершения нотариальных действий в Республике Узбекистан и сравнительный анализ с двухязычными нотариальными системами других стран	316
L.B. Avliyoqulova	Soha lingvistikasini rivojlantirish davr talabi	319
I.H. Axmatova	Buxoro janubiy tumanlari etnotoponimlari	322
G.S. Hojiyeva	Dunyo sivilisatsiyasida Buxoroning o'rni: zargarlik va zardo'zlik (o'zbek va fransuz terminlari chog'ishtirma tahlili misolida)	324
M.T. Babayev	Mavlono Jaloliddin Rumi (Balxiy)ning "Masnaviyi ma'naviy" asaridagi hikoyatlarda odob-axloq masalalari	327
Ш.Н. Бердиева	Влияние детективного жанра на мышление человеческого разума	332
F.M. Boboxonova	Bolalar mediatsiya evolyutsiyasi	335
R.X. Boymirzaeva	O'qituvchining huquqiy madaniyatini yuksaltirish – o'qituvchining kasbiy rivojlanishi xususiyatlarining tarkibiy qismi sifatida	339
Z.A. Bozorov	Maqollarda sog'liqning ijtimoiy-ma'naviy qadriyat sifatida ifodalanishi	342
G.Z. Bozorova	O'zbek tilida tibbiy terminlarning uslubiy xususiyatlari va ularning nutqiy voqelanishi	345
O.A. Babayev	The evolution and significance of translation	347
Г.П. Даниярова	Поэтика символов и метафор в поэзии И. Юсупова	352
Н.Р. Eshonqulov, A.H. Hamidov	Alisher Navoiy g'azallaridagi ayrim matniy tafovutlarga vazn talablari asosida yondashuv	354
D.A. Farmanova	Ethnopoetics as the core of literary expression: its role and relevance in literary education	358
M.T. Furkatova	A comparative morphosyntactic and cognitive analysis of the dative case in English and Uzbek: directionality, agency, and pragmatic functions	361
G.M. Ibragimova	The role of somatisms in language and speech	363
Sh.R. Gapparova, B.N. Gapparov	Innovatsion pedagogika va zamonaviy filologiyaning tutashgan jihatlari: nazariya va amaliyot	370
M.U. Gulumov	"Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining o'rganilishi haqida	373
N.H. Halimova	Challenges of bilingualism and multilingualism in modern philology	374
Sh.A. Hayitov	"To'tinoma"ning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	377
D.Z. Hayotova	Jenni Erpenbekning "Makon istab" romanida "vatan" konseptining lingvokulturologik tahlili	383
Y.Y. Hodiyeva	Tibbiyot yo'nalishi talabalarining ingliz tilini o'rganishda strategik kompetensiyasini Scamper texnologiyasi yordamida rivojlantirishda yuzaga keladigan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari	390
C.M. Усмонова	Искусственный интеллект в высших учебных заведениях: трансформация образования будущего	394
Z.O. Homidova	Yosh o'quvchilar uchun so'z boyligini oshirishda interaktiv o'yinlarning roli (ingliz tili misolida)	396
M.G'. Islamova	Teleproduser teleloyihalar yaratishida o'zbek zamonaviy leksikologiyasidan unumli foydalanishi	398
J.N. Ismatilloev	Ismat Buxoriyning tariqat peshvosiga bag'ishlangan qasidasi	400
B.X. Ismoilov	Yusuf Sakkokiyning «miftohu-l-ulum» asarida Musnad Ilayhi (ega) ning aniqlik o'rinlari	403
M.A. Isroilova	Sinonim va antonimlar orqali o'zbek tilining ma'no ko'lami: parametrik yondashuvda o'rganish	407
T.K. Ivanova, S.A. Khujakulov	Linguistic and legal perspectives on the lexico-semantic features of judicial terms in English and Uzbek	409
M.M. Jo'rayeva	Xorijiy tillarni o'rgatishda kreativ o'qitish texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati	413